

VICIA SATIVA L. NING YANGI “MIRZACHO‘L-2” NAVI: KELIB CHIQISHI, BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AMALIY AHAMIYATI

O‘.T.Jumanov

T.X.Kuliyev

R.F.Qurbonova

Sh.Payanov

Guliston davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va biokimyo ITI,
Don va dukkakli ekinlar ITI Surxondaryo ITS

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21625524>

Annotatsiya. Mazkur maqolada *Vicia sativa* L. ning yangi “**Mirzacho‘l-2**” navining kelib chiqishi, morfologik va biologik xususiyatlari, agrotexnikasi hamda qishloq xo‘jaligidagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Navning hosildorligi, siderat ekin sifatidagi ahamiyati, ozuqaviy qiymati va tuproq unumdorligini oshirishdagi afzalliklari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *Vicia sativa* L., Mirzacho‘l-2, vika, yangi nav, siderat, yem-xashak ekini, hosildorlik, agrotexnika.

Аннотация. В статье представлены происхождение, морфологические и биологические особенности нового сорта «**Мирзачуль-2**» вида *Vicia sativa* L., его агротехника и практическое значение в сельском хозяйстве. Охарактеризованы урожайность сорта, кормовая ценность, использование в качестве сидеральной культуры и роль в повышении плодородия почвы.

Ключевые слова: *Vicia sativa* L., Мирзачуль-2, вика, новый сорт, сидерат, кормовая культура, урожайность, агротехника.

Abstract. This paper describes the origin, morphological and biological characteristics, cultivation practices, and agricultural importance of the new *Vicia sativa* L. cultivar ‘**Mirzachol-2**’. The cultivar is characterized by stable productivity, high forage value, suitability as a green manure crop, and its contribution to improving soil fertility and sustainable crop production.

Keywords: *Vicia sativa* L., Mirzachol-2, common vetch, new cultivar, green manure, forage crop, productivity, agronomic practices.

Kirish. Guliston davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va biokimyo ilmiy tadqiqot instituti xodimlari tomonidan chorva ozuqa va siderat ekin sifatida Mirzachul 1, Mirzcho‘l -2 navlaridan foydalanilganida tuproq tarkibidagi gumus miqdori 0,28 % ga ortgan. Vikada protein miqdori (vegetativ massasida) 19,5 % ga teng bo‘lgan bo‘lsa donida organizm uchun zarur bo‘lgan almashinmaydigan aminokislatlar miqdori 1,82- 3,3% ga teng ekanligi qayd etilgan[1, 2]. Vikaning sho‘rli muhitda galoakkumulyativlik xususiyatlari uning sho‘rga, hamda sovukka chidamligi ekin sifatida e‘tirof etilgan [3, 4]. Shu bilan birga Ensizbargli vika (*Vicia angustifolia*.L) turi tanlab olingan. Ushbu tur ertapisharligi, oqsil miqdori(18,24 %) hamda almashinmaydigan aminokislatlardan lizin 0,50 % va metioning 0,42 % ga teng bo‘lib vikaning Mirzacho‘l-1 va Mirzacho‘l-2 navlaridan ustun ekanligi va chorva ozuqa ekin sifatida foydalanish uchun tavsiya etilgan[5]. Chorva ozuqa sifatini yaxshilashda dukkakli va boshhoqli don ekinlar agrotsenozida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan[5]

Xo‘jalik belgilari. Vegetatsiya davri o‘rtacha 235-240 kunni tashkil etadi. Yoyilib o‘sadi. Kechpishar. Kuchsiz sho‘rlangan tuproq sharoitiga chidamli. Mazkur navni kuzda ekish va erta bahorda chorva mollari uchun ozuqa sifatida foydalanish mumkin

Agrotexnikasi: Erni ekishga tayyorlash- g'alladan bo'shagan ekin maydonlari sifatli shudgor qilinadi. Erni shudgorlashdan oldin suv berish imkoniyati bo'lsa, sug'organdan keyin shudgor qilinsa shudgorlash sifatli bo'ladi.

Ekish me'yori- vika sof holda ekilganida gektariga 120-130 kg javdar va tritikale bilan birgalikda ekilganida esa vikaning miqdori 60-65 kg ni ekish chuqurligi 5-7 sm ni tashkil etadi. Vikani ekish donli ekinlarni ekishga o'xshash bo'ladi. Vika o'simligi yoyilib o'sganligi sababli uni donli ekinlar, jumladan tritikale, jadvar bilan birga ekish(kuzda) tavsiya etiladi. Bunda vika va donli ekinlarning ekish me'yori 1:1 tashkil etishi talab etiladi.



Ekish muddati- kuzda oktyabr va erta bahorda mart oyining boshida ekish tavsiya etiladi. Urug'i o'rta hisobda 12-15 kunda unib chiqadi.

Sug'orish- ekishdan keyin va vegetatsiya davrida tuproq tarkibidagi namlikni e'tiborga olgan holda sug'orish ishlari bajariladi. Qiyg'oz gullagan vaqtida ko'p sug'orish talab etilmaydi.

O'g'itlash- ekish vaqtida gektariga 100 kg fosforli 50-60 kg kaliyli o'g'it berish tavsiya etiladi. Vika donli ekinlar qo'shib ekilganida gektariga, erta bahorda 100 kg azotli o'g'it berish kerak bo'ladi.

Urug'chiligi- birlamchi urug'chilik ko'chatzorlari eni 2 m bo'lgan kichik maydondan iborat bo'ladi. Ushbu ko'chatzorda yakka tanlab olingan dukkak urug'i 60 x25-2 sxemada ekiladi.

Hosildorligi. Vika sof holda ekilganida hosildorligi gektariga 90-110, don ekinlar (tritikale) 300-310 sentner yashil massani tashkil etadi. Vikadan gektariga 1.4-1,6 t/ga don olinadi.

Siderat ekindan ko'k o'g'it sifatida foydalanish -erta bahorda - aprel oyida siderat ekinlarning to'liq gullash davrida yashil ekin sifatida foydalaniladi. Buning uchun oraliq ekin ekilgan dala og'ir disk bilan ikki marta ishlanadi. So'ngra 30-32 sm chuqurlikda haydalib, orqasidan mola-borona qilinadi takroriy ekinlar ekiladi.

Poyasi- yotiq, bo'yi 70-80 sm ayrim hollarda 100-110sm teng bo'lib, shoxlab o'sadi va mayda tukchalar bilan qoplangan



Guli- gul barg qo'ltig'ida 1 yoki 2 tadan joylashgan. Gultojibarglarining uzunligi 12-16 mm, rangi binafsha. Aprel -may oylarida gullaydi.



Kelib chiqishi. “Sho’rga chidamli o’simliklar genofondi” da saqlanayotgan ekma vikaning *Vicia sativa* L. tur xiliga tegishli kolleksion namunasidan yakka tanlash yo’li bilan yaratilgan. .

Morfologik belgilari: Vika (*Vicia*) dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasi, ekma vika (*Vicia sativa* L) turiga mansub, bir yillik o’t.

Bargi- juft patsimon, Barglarining shakli oval –cho’zinchoq, butun, bir xil kattalikda, tuk bilan qoplangan.



Urug’i- 1000 ta don og’irligi 40-41g ni tashkil etadi. Urug’i ovolsimon, yuzi xira, och jigarrang rangda bo’ladi. Urug’ kertigi kaltaroq, uzunchoq-oval shaklda, o’rtasida och yo’li bor. Dukkagi tuksiz, uzunligi 5-7 sm bo’lib tarkibi 7 tagacha dondan iborat.



Ahamiyati- siderat ekin, urug’i tarkibida oqsil miqdori 20-24% ni vegetativ massasida esa 15-20 % ga teng. Shu bilan birga tarkibida 3,18 % moy va 33,4 % azotsiz ekstraktiv moddalar mavjud. Vika ekilgan ekin maydonlarining har gektaridan 100-120 kg azot to’planadi. Yog’ingarchilik va sug’orish suvlarini tuproqqa yaxshi singishini va uning qatlamlaridagi namlikni bir xil saqlash imkoniyatini beradi. Sovuqqa chidamli xashakbop ekin.

Vicia sativa L. ning yangi “Mirzacho’l-2” navi respublikaning sug’oriladigan va qisman sho’rlangan tuproq-iqlim sharoitlari uchun yaratilgan istiqbolli dukkakli ekin hisoblanadi. Nav yuqori moslashuvchanligi, barqaror hosildorligi hamda sifatli yem-xashak va don hosili berishi bilan ajralib turadi. Uning biologik va xo’jalik belgilari chorvachilikni sifatli ozuqa bilan ta’minlash, tuproq unumdorligini oshirish va almashlab ekish tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Mirzacho’l-2” navi vegetatsiya davrida jadal o’sib-rivojlanishi, yaxshi

shoxlanishi hamda ko'p miqdorda yashil biomassa hosil qilishi bilan qimmatli hisoblanadi. Donining oqsilga boyligi va ozuqaviy qiymati qoramol, qo'y va echkilar uchun yuqori sifatli konsentrlangan yem tayyorlash imkonini beradi. O'simlikning poya va barglari pichan, senaj va silos tayyorlashda keng qo'llanilishi mumkin. Dukkakli ekin sifatida “Mirzacho'l-2” atmosfera azotini biologik o'zlashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tuproqda azot zaxirasining ko'payishiga xizmat qiladi. Bu esa mineral azotli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi, tuproq unumdorligini yaxshilaydi va keyingi ekinlar hosildorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli nav almashlab ekish tizimlarida samarali prekursor ekin sifatida tavsiya etiladi. Navning agroekologik sharoitlarga yaxshi moslashganligi uni Mirzacho'l hududi hamda shunga o'xshash tuproq-iqlim sharoitiga ega mintaqalarda keng joriy etish imkonini beradi. U qurg'oqchilikka va ayrim noqulay ekologik omillarga nisbatan nisbatan bardoshli bo'lib, turli agrotexnik tadbirlar qo'llanilganda barqaror hosil shakllantiradi.

“Mirzacho'l-2” navidan yashil o'g'it (siderat) sifatida foydalanish ham katta amaliy ahamiyatga ega. O'simlik biomassasini tuproqqa haydash natijasida organik modda miqdori ortadi, tuproqning fizik-kimyoviy xossalari yaxshilanadi, mikrobiologik faolligi kuchayadi va unumdorlik darajasi oshadi. Bu esa ekologik barqaror dehqonchilik tizimini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, “Mirzacho'l-2” navi seleksiya va urug'chilik ishlarida qimmatli boshlang'ich genetik material sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Uning yuqori hosildorlik salohiyati, moslashuvchanligi va qimmatli xo'jalik belgilari kelgusida yangi, serhosil va stress omillariga chidamli vika navlarini yaratishda samarali foydalanish imkonini beradi.

Umuman olganda, Vicia sativa L. ning “Mirzacho'l-2” navi yuqori ozuqaviy qiymatga ega yem-xashak va don yetishtirish, tuproq unumdorligini biologik usulda oshirish, chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini yaratish hamda resurs tejankor va ekologik barqaror dehqonchilikni rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbolli mahalliy navlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Кулиев Т, Турматов Б, Ражабов Б // Тупрок унумдорлигини ошириш имкониятлари, / Биохилмахилликни саклаш республика илмий анжумани. Гулистон 2007
2. Кулиев Т, Н.Сулаймонов // Перспективное солеустойчивое растение в условиях Мирзачулья. Материалы VI Международной научно-практической конференции Россия, Невинномысск: НИЭУП, 2012
3. Кулиев Т, Бердиев У, Тожиева Г // Вика хашакбоп экин. Университет профессор-ўқитувчилари ва талабаларининг соғлом бола йилига бағишланган XLVIII анъанавий илмий назарий анжуманининг материаллари тўплами. Гулистон 2014 йил
4. Кулиев Т, Х.Кушиев, С.Расулов, Н.Сулаймонов // Вика ўсимлиги селекцияси ва уруғчилиги, Селекция ва уруғчиликнинг соҳасининг ҳозирги ҳолати варивожланиш стиқболлари. Республика илмий-амалий конференцияси Тошкент, 2014 й
5. Т.Кулиев // Вика ўсимлигининг биометрик кўрсаткичлари ўртасидаги корреляцион боғланишлар даражаси ва тузилиши. Тошмухамедов Бекжон Ойбекович 80 йиллик таваллудига боғишланган “Физик –кимёвий биологиянинг долзарб муаммолари” мавзусидаги илмий –амалий анжуман материаллари, Тошкент 2015

